



№3/2024

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Yulbarsova X.A. Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va tavsifi	4
Xushnazarova M.N. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda pedagogika fanining samarali usullaridan foydalanish	10
Raxmedova M.A. Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy merosidan yoshlarni axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari	13
Ismoilov Y.Q. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning texnologik masalalari	17
Iminova H.M. Ta'lim tizimiga konsentrlangan ta'limni integratsiya qilishning zamonaviy pedagogik tendensiyalari	20
Muladjanova G.A., Mullajonova M.D. Oliy ta'lim talabalarining sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish kompetentligini takomillashtirish	25
Wang Ping. Exploration of ethnic music elements in chinese piano works	29
Kadirov A.M., Ergasheva Sh.Q. The role of fine arts in installing the values of human dignity in general education pupils	32
Nadirxanova N.A. Enhancing creative competence in students through the steam educational methodology: integrating visual arts and engineering graphics	38
Axmedova D.X. Interfaol usulda rag'batlantirishning o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'siri	44
O'rinboyev M. I. Fizika o'qitish amaliyotida metakognitiv faoliyatlarni takomillashtirish	48
Burxonova M.M., Sirojiddinov B.A. Amaliy mashq va masalalarning kontekstual asoslari hamda umumta'lim maktablarda qo'llanilishi bo'yicha pedagogik-metodik aspektlar	51
To'raxonova B.T. Bo'lajak pedagog-psixologlarni tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	54
O'smanova D.Z. Zamonaviy dars jarayonida adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirish	57
Xudoyberganova M.A. Talabalarga adabiyotni o'qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning samarali texnologiyalari	61
Iminova D.N. Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni	65
Abdulmadjidova M.D. Ilk o'spirinlik davrida mehnatga munosabatning shakllanishi	68
Dushabayeva G.M. Mustaqil ta'limda chizmachilik fanidan kompyuter dasturlarda foydalanishning ahamiyati	71
Utanova V.M. Diskurs tahlili: umumiy ta'rif, metodologiya va misol	75
Qoraboyev J.B., Qoraboyeva N.N. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik ma'no tuzilishi	78
Umarov A.V. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar – talabalarining mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida	81
Qodirova O.S. Maktabgacha ta'lim yoshida bolalarning ta'lim faoliyatiga faol tashabbuskorlik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	86
Aslonov X.Sh. Dasturlangan laboratoriya ishlarida yarimo'tkazgichlarning ta'qiqlangan zona kengligi tushunchasi	89
Bakirov I.H. Boks sport turida musobaqalarning o'tkazish turlari va musobaqa faoliyati	94
Saidg'aniyev S.O. Bolalar uchun sport gimnastikasi	98
Tojiboyeva N.T. Ta'lim muhitida o'zini-o'zi boshqarishda qiyin bo'lgan o'smirlarning hissiy qulayligining psixologik jihatlari	100
Dushabayev D.Sh. Umum ta'lim maktablarda jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	103
Abdullaev G'A. The method of determination of aerobic and anaerobic treshhold by heart rate of athletes in the development of endurance qualities in athletics training (In the case of middle and long distance runners)	106
Qurbonova F.M. Talabalarining jamoada ishlash qobiliyatlarini kollobratsiya asosida shakllantirishning psixologik xususiyatlari	110
Shobduraximova U.T. Tavakallchilikka asoslangan virtual o'yinlar va ularning jamiyatga salbiy ta'siri	113
Hasanova S.K. Development of creative thinking of primary class students based on pirls' flows	115
No'monova A.N. O'zbekiston ta'lim tizimiga tasviriy san'atning rang tasvir yo'nalishini tadqiq etishning dolzarb masalalari	119
Toshtemirov Q.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa merosi "shashmaqom"ni o'rganishning ahamiyati	122
Gofurjanova N.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirokning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni	126
IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR	
Yusupova S.N., Bakhronov B. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muamolari	129
Olimova Z.I. Abdulla Avloniyning Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi	132
Mirzayeva B. Maishiy zo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati	134

Demak, mamlakatimizda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim oluvshilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar ta'limni insonparvarlashtirish, bo'lajak pedagoglarda aksiologik munosabatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirdi. Shu bilan birga, milliy pedagogika fani oldida oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish zarurati mavjudligi aniqlandi. Bu borada oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy qadriyatlar tizimi, faoliyat motivlari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning aksiologik mezon va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, qadriyatlar tizimini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi va mexanizmlarini takomillashtirish, kreativ ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. Mualliflar: M.Abdullaev, M.Abdullaeva, G.Abdurazzaqova va boshq. – T.: SHarq, 1998. – B. 141. (320-b.).
2. H. von Hartmut. Ah, the Values!: On Education for the 21st Century: A Public Awareness of Ambiguous Tasks. About an education for the 21st century //Beltz. 2015. – 23 p. (465).
3. Бондаревская Е.В. Ценностные основания личностно-ориентированного воспитания // «Педагогика», 1995/№4. – С. 29-36.
4. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Лубков А.В. Гуманистическая парадигма и личностно ориентированные технологии профессионально-педагогического образования. – М.: Магистр-Пресс, 1999. – 23 p. (235).
5. M.N.Xushnazarova. Volontyorlik faoliyatining ijtimoiy –pedagogik muammolari. Science problems .UZ.Ijtimoiy- gumanitar fanlarning dolzarb muammolari.№ 12 /2 (3)- 2023 . 311-315.
6. M.N.Xushnazarova. Volontyorlik (ko'ngillilik) faoliyatining innovatsiyon shakllari va ularning pedagogik tahlili. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlarlari.2024.(1/4) ISSN 2181-7324,229-232.
7. M.N.Xushnazarova. Oliy ta'lim talabalari orasida volontyorlikning mikro darajadagi omillariga e'tibor qaratish. NamDU ilmiy axborotnomasi . 2023 yil 12-con.792-796.
8. M.N.Xushnazarova.The need to use the experience of foreign countries regarding the improvement oft he pedagogical conceptual mechanism of volunteer activities. Journal of Advanced Zoology.Volume 44.issue-2 Year 2023 Page 3765-3771.

UO'K: 37.013.73:17.022.1

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING MA'NAVIY MEROSIDAN YOSHLARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

<https://zenodo.org/records/13292223>

Raxmedova Manzura Azadovna
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmud az-Zamaxshariy asarlarini mazmuniga qarab ma'rifiy-tarbiyaviy ilmlar haqida, diniy ilmlar va ulamolar haqida, lug'atshunoslik, grammatika (nahv), aruz, adabiyot, mantiq kabi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkinligi hamda uning axloqiy-tarbiyaviy qarashlarida o'zidan kattalarni hurmat qilish, bola tarbiyasi va unda ota-onaning tutgan o'rni haqidagi qarashlari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Axloqiy-tarbiyaviy qarash, kattalarni hurmat qilish, bola tarbiyasi, xushxulq, odobli, mehnatsevar, aql-idrokli, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik.*

Аннотация: *В данной статье анализируется труды Махмуда аз-Замахшари разделив на такие группы, как образовательно-педагогические и религиозные науки, лексикография, грамматика, литература, логика, а также морально-просветительские взгляды ученых, уважение к старшим, роль родителей в воспитании детей.*

Ключевые слова: *Морально-воспитательные взгляды, уважение к взрослым, воспитание детей, хорошие манеры, вежливость, трудолюбие, умность, патриотизм, человеколюбие, гуманизм, уважение и лояльность к другим.*

Abstract: *This article analyzes the works of Mahmud al-Zamakhshari, dividing them into groups such as educational, pedagogical and religious sciences, lexicography, grammar, literature, logic, as well as the moral and educational views of scientists, respect for elders, and the role of parents in raising children.*

Key words: *Moral and educational views, respect for adults, raising children, good manners, politeness, hard work, intelligence, patriotism, philanthropy, humanism, respect and loyalty to others.*

Jahonda nafaqat Sharq, balki G'arb mutafakkirlari tomonidan ma'naviy-axloqiy merosini har tomonlama tadqiq qilish, zamonaviy tabiiy-ilmiy paradigmalari, balki tarbiya nazariyasining g'oyaviy-metodologik asosi ekanligi e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarimizning ibratli hayoti va ilmiy faoliyati, muhim kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solmoqda. Xususan, Abul-Qosim Mahmud az-Zamakhshariyning islom madaniyati va falsafasini rivojlantirishdagi o'rni ham beqiyosdir. Allomaning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasini ma'naviy jasorat deb ta'riflasak xato qilmagan bo'lamiz. Ayni shu ma'noda, allomaning ma'naviy merosini o'rganish chuqur bilimli, mustaqil fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida Mahmud az-Zamakhshariy ma'naviy-axloqiy qarashlarining qiyosiy tahlili asosida uning zamonaviy shaxs tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berish, tafsir, hadis, nahv, lug'at, ilm-ul-bayon, Qur'oni karim sura va oyatlari, hadislar ma'nosini o'rganishning ijtimoiy munosabatlarda murosa madaniyatiga amal qilish uchun zaruratini asoslash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari nafaqat sharq, balki g'arb, xususan, yevropalik sharqshunos Brokkelman, Bensing, Gibb, Goldsier, Neldeke, Rayt, I.Y.Krachkovskiy, B.Z.Xolidov, A.B.Xolidov, V.M.Belkin, V.V.Bartold, A.K.Borovkov, A.Krimskiy kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Yurtimizda bu borada A.Rustamov, U.Uvatov, Mahkam Mahmud va Nazarbek Rahim, F.Zohidlar tomonidan turkum kitoblar, Z.Islomov, M.Hakimjonov, M.Nosirova, A.Boltayev, N.Sulaymonova, S.Qosimova, Sh.Mirziyatov, D.Xudjanova va L.To'rayevlar tomonidan alloma ijodi bilan bog'liq qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Buyuk ajdodlarimiz inson ma'naviy-axloqiy kamoloti masalasini ilm bilan bog'lashgan. Bu o'zining teran ma'nosi va mantiqiy asosiga ega. Haqiqatan ham, borliq sir-asrorlaridan boxabar bo'lmasdan turib, aql imkoniyatlaridan samarali foydalanmasdan, yetuk inson martabasiga erishib bo'lmaydi. Ana shuning uchun ham ilm ahli barcha davrlarda ta'lim-tarbiyaning mohiyati, zarurati, qadr-qimmatini, uni amalga oshirish usul va vositalari, undan kutilgan maqsad masalalarini tadqiq etishga katta e'tibor qaratishgan. Xususan, buni biz Mahmud az-Zamakhshariyning ma'naviy-axloqiy qarashlar rivojiga qo'shgan hissasi, uni o'rganishning ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslashga harakat qilamiz.

Mahmud az-Zamakhshariy o'z davrining tom ma'nodagi mutafakkiri, allomasi edi. Sababi u qalam tebratmagan ilm sohasining o'zi kam edi. Mahmud Zamakhshariyning axloqiy qarashlari uning «Nozik iboralar» nomli kitobida aks etadi. Bu kitob 250 ta hikmat va nasihatlardan iborat bo'lib, unda Mahmud Zamakhshariy zamonasidagi turli tabaqa kishilari va kasb-hunar egalarining jamiyatda tutgan o'rni va axloq-odobi to'g'risida fikr yuritarkan, mutafakkir shaxsning qandayligi va kimligidan qat'iy nazar, avvalo, u xushxulq va odamiylik ziynatiga ega bo'lmog'i kerakligi to'g'risida gapiradi va "o'z birodaringni yanchilgan mushukdan ko'ra ham xushbo'y so'zlar bilan maqtab yod etadi. Uning ta'kidlashicha, garchand u sendan uzoq shaharda bo'lsa ham", "ogoh bo'lingizki, karim va hurmatli, vafodor odamni yo'qotish er kishiga vafotdan ko'ra ham og'irroqdir", "halol va pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir", deydi[4]. Buyuk olimning

fikricha, “axloqiy yetuk kishining muhim hislatlaridan biri kamtarlik, sahiylik, go‘zallik va mardlik bo‘lib, “tiliyu dili to‘g‘ri va haqgo‘y bo‘lgan odamning xatoyu nuqsoni kam bo‘lur”, “Kimniki qo‘lidan hayr-barakali va purhikmat ishlar kelmasa, uning nasabining sharifligi-yu ulug‘ligi foyda keltirmas” [1]. “Qo‘rquvga muhtalo bo‘lgan kishi faqat qochishdan najot izlaydi”, “Go‘zal sifat va husni xulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko‘rkam qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira “aybdan forig‘ bo‘lmas”, deydi. Demak, oddiylik va kamtarlik kishini ma‘naviy go‘zal qiladi, bunday mard kishilarga baxt doimo kulib boqadi [2]. “O‘z va‘dasida turmaganda turli-tuman vaj-karsonlar ko‘rsatuvchi kimsa hech qachon mard va himmatli inson bo‘lolmaydi” deb nomardlarga nisbatan “odamlar turli-tuman bo‘ladilar, afsuski ularning, aksariyati nopokdirlar” deb nopoklarga qarshi, kurashishni izhor qiladi. Mahmud az-Zamaxshariy pastkash, ikkiyuzlamachi, ig‘vogar nomard kishilardan uzoqroq yurishni maslahat berib, “senda ikki yaramas odat mavjuddir: biri kibrlilik va kalondimog‘lik bo‘lsa, ikkinchisi hasislikdir. Sen yurganingda takabburlik qilib yurasan, muhtoj kishi sendan narsa so‘rasa, yo‘q deysan” yoki “odamning botini (ichi) to‘g‘ri, salomat va tuzuk bo‘lsa uning zohiri (tashqari) ham saxiy va salim bo‘lur”, deydi. Shuningdek u do‘stlik, do‘st tanlash muammolariga ham to‘xtalib kishini do‘st tanlashda zinhor yanglishmaslikka chaqirib, “agar yomon yo‘ldoshga ergashsang, uning og‘usi bilan zaharlanasan, yaxshisi uning dushmanlari jumlasidan bo‘l, shunda uning og‘usiyu zahmatidan qutulasan» yoki «agar senga nisbatan o‘z birodaring biror xiyonat qilsa, unga yaqinlashishdan o‘zingni tiy, uning makru hiylasidan o‘zingni muhofaza etishga harakat qil” ya‘ni “kimki baxt-iqbolli, solih kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murodu maqsadiga erishib, xayru baraka topar”, deb chinakam do‘stlikning asosiy belgisi sadoqat va ishonch ekanligini tasdiqlaydi. Zamaxshariy kishilarni halollik va rostgo‘ylikka, to‘g‘rilikka, adolatli va insofli bo‘lishga da‘vat etib, “boshingizga mushkul ish va tashvish tushganda munis bo‘lib, odamlarga mehr-muhabbatliroq bo‘lasiz, ammo davlatu ne‘matlarga erishganingizda bag‘ritoshlikka moyil bo‘lasiz” desa, “pastkash kimsaning o‘z nasl-nasabini maqtab, u bilan faxrlanishi, chanqoq kishining suv shu‘lasi (sarobi)ni ko‘rib aldangani kabidir”, -deydi. Shu bilan birga u insoning qadrini oshiruvchi ham pasaytiruvchi ham til ekanligini qayd qilib, “agar tilingning ortiqcha so‘zlashiga ega bo‘la olmasang o‘zingni shaytonga topshirgan bo‘lasan” deydi. So‘ngra u kamtarlik va to‘g‘rilik haqida gapirib, “to‘g‘ri va haq yo‘ldan yurgan kishining yurishi arslon yurishidan ko‘ra ham mahobatliroq (xaybatliroq) dir”, deydi [3].

Shuning uchun faqat to‘g‘ri va haq yo‘ldan yurgan. Chunki to‘g‘ri va haq yo‘ldan yurgan kishining arslon yurishidan ham haybatliroq ekanini ko‘rsatgan bo‘lsa, yana bir nasihatida Mahmud Zamaxshariy, “halol va pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir” deydi hamda “takabburlik hech bir kimsaning qadr-qimmatini va ulug‘vorligini ziyoda qilmaydi, u bor-yo‘g‘i dovul ichidagi shamoldan boshqa narsa emas” deb Zamaxshariy takabburlikdan, yolg‘ondan saqlash, tilingni faqat to‘g‘ri so‘z bilan aylantirish kerakligini ko‘rsatadi. Yolg‘on esa til uchun zangdan ham yomonroqdir. Takabburlik qilganingda yolg‘on gapirganingda tiling senga boyliklar keltiradigan yerda ham, baribir rost gapirgin deydi.

Zamaxshariy axloqiy-tarbiyaviy qarashlarida o‘zidan kattalarni hurmat qilish, bola tarbiyasi va unda ota-onaning tutgan o‘rni haqida ham o‘zining qimmatli fikrlarini bayon qiladi. Ota-ona bolani xushxulq, odobli, mehnatsevar, aql-idrokli qilib tarbiyalamoqchi ekan, avvalo bolani me‘yoridan, ortiqcha erkalatmasdan doimo nazoratda tutish kerakligini uqtirib, “hayvonga yaxshilik qilsang sevinadi hayvon sevinisa egasini tepadi (odam bolasi ham shunga

o'xshash; agar u tashvishu mashaqqatdan holi qolib, o'zini erkin sezsa, fisqu fujurga ruju' qo'yib, yaqinlarini qiynab, azob keltirur" yoki "ba'zan yaqin kishing og'a-ining senga go'yo soqchi va nazoratchi kabi bo'lib o'limingni, yaqin vaqtda sening qabrga qo'yilishingni istarlar: bolang mol-dunyo menga meros qoladi deydi. Tug'ishgan og'a-ining esa o'g'ling borligi uchun merosdan maxrum bo'lgani sababidan sen uchun astoydil jon kuydirmaydi. Xullasi kalom, sen g'aflatda bo'lmagach hech bir qarindosh urug'dan va yaqinlardan foyda yo'q, o'g'ling yuraging bo'lagi bo'la turib sening tezroq o'lishingni kutib, merosga egalik qilish orzusida bo'lgandan keyin boshqalardan ne umid bo'lgay?", deyishi bilan mutafakkir hayotda yaxshi ota-onalardan nomunofiq farzandlar paydo bo'lsa, "ba'zida ikki yaramasdan (ota-onadan) Hasan misoli go'zal bir o'g'lon dunyoga keladi", chunonchi qon bilan etning orasidan sut chiqadi" deb ikki tomon ham tarbiya mahsuli ekanligini tushuntiradi. Ya'ni bola tarbiyasi ota-onaga, ota-ona tarbiyasi jamiyatga bog'liq ekanligini ko'rsatib, hamma yaxshi va yomon fazilatlar ota-ona obro'siga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Mahmud az-Zamaxshariyning tarbiyaviy fikrlari «Al-Foiq fi g'arib il-hadis ("G'arib hadislar haqida ajoyib asar") nomli asarida hadislar majmuida alifbo tartibida berilgan bo'lsa, "Asos ul-balog'a" ("Balog'at asoslari") adab fanining mustahkam asosi hisoblanadi. Bu asarning asosiy manbalari Qur'oni karim, payg'ambar hadislari, Umar, Ali kabi xalifalar, sahobalar va boshqa fasohatli notiqning kalimayu so'zlari, johiliya, islomdan avvalgi va islom shoirlarining she'rlari, masallar, arablar nasriy asarlarida qo'llanilgan iboralar ekanligi ko'rsatiladi.

Mahmud az-Zamaxshariyning "Al-qasida al-Baudiya" ("Chivin haqida qasida") nomli qomus tarzidagi bu ta'lim-tarbiyaviy kitobi uch ming to'rt yuz oltmish bir alifbo tartibida berilgan masalni o'z ichiga oladi. «Maqomat az-Zamaxshariy», («Az-Zamaxshariy maqomatlari») asari az-Zamaxshariy og'ir kasallikdan tuzalgandan keyin yozilgan bo'lib ellik ibratomuz hikoyalardan iborat maqolalarni o'z ichiga oladi.

Allomaning yuqoridagi ko'rsatilgan ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan asarlaridan tashqari turli sohalarga, ya'ni adabiyot, tarix va boshqa qator ilmlarga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yirik asari «Rabiy' ul-abror va nusus-ul axyor» («Taqvodorlar bahori va fozillar ahbori») shu asarning bir bo'lagi sifatida «Nuzxat ul-Mustaanis» («Do'stlar farog'ati») asari ma'lum ekanligi haqida dalillar bo'lib, bu asarlar qatorida jug'rofiy xarakterdagi qomusiy asari «Al-Jibol va-l-amkina va-l-miyoh» («Tog'lar, joylar va suvlar haqida»), «A'jab ul-ajab fi sharhi lomiyat il-arab» («Lomiyat-ul-arab sharhida ajoyibning ajoyibi»), «Kitob xasois ul-asharat ul-kirom al-barara» («Saxiy, karomatli o'n kishining xususiyatlari haqidagi kitob»), «Ad-dur ad-doir al-muntaxab fi kitobot va isti'arat va tashbehoh il-arab» («Arab kitobot, istiorat va tashbehohlaridagi tanlangan gavharlar») [4].

Xulosa qilib aytganimizda, Mahmud Zamaxshariyning asarlarini mazmuniga qarab ma'rifiy-tarbiyaviy ilmlar haqida, diniy ilmlar va ulamolar haqida, lug'atshunoslik, grammatika (nahv), aruz, adabiyot, mantiq kabi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin.

Mahmud az-Zamaxshariy ta'limotidagi ma'naviy-ma'rifiy muammosini ilmiy tahlil etib, shu xulosaga keldikki, bu mutafakkir tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalar, takliflarni, ilgari surilgan qarashlarni hisobga olib, hozirda, yosh avlodni ma'naviy tarbiyasi darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, O'zbekistonning kelajakdagi barkamol shaxsni tarbiyalashda quyidagi asosiy fazilat va ko'nikmalarni hosil qilish hamda ularni odat tusiga aylantirish lozim:

-vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, elga hurmat va sadoqat, xalq qayg'usi va quvonchiga hamdardlik, mehnatsevarlik, chin qo'shnicilik munosabatlari, mehmondo'stlik;
-oilaga sadoqat, pok muhabbatni e'zozlash, diyonatli va vijdonli bo'lish, o'z nomusi va orini saqlash, ichkilik va giyohvandlik kabi nomaqbul odatlardan saqlanish;
-ajdodlarga hurmat-ehtirom, ularning merosini ardoqlash, asrab avaylash, o'qib-o'rganish, o'git, pand-nasihatlariga amal qilish ishlarini davom ettirish.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. T,- «Kamalak», 1992, 63-78-betlar.
2. Buyuk siymolar, allomalar. T.,1995,1-kitob., 28-b.
3. Uvatov U. Zamaxshariyning ijodi. T.: Universitet, 2006.-35b.
4. Xodjaniyazov S.U. Xorazm mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: MCHJ "Lesson Press" nashriyoti, 2021. -66 b.

UO'K: 371.3:00

BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING TEXNOLOGIK MASALALARI

<https://zenodo.org/records/13292228>

Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich

T.N.Qori Niyoziy nomidagi

O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning texnologik masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, jismoniy madaniyat o'qituvchilarning kasbiy fazilatlarini va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning izchilligi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *modernizatsiyalash, ma'naviy-axloqiy tarbiya, kasbiy kompetensiya, konsepsiya, talablar, qadriyat, jismoniy madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются технологические вопросы духовно-нравственного воспитания будущих учителей физической культуры. Также представлены сведения о профессиональных качествах учителей физической культуры и системности взаимоотношений, возникающих в процессе обучения.*

Ключевые слова: *модернизация, духовно-нравственное воспитание, профессиональная компетентность, понятие, требования, ценность, физическая культура.*

Abstract. *This article discusses the technological issues of spiritual and moral education of future physical education teachers. Also, information about the professional qualities of physical education teachers and the consistency of relationships that arise in the process of education are presented.*

Key words: *modernization, spiritual and moral education, professional competence, concept, requirements, value, physical culture.*

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan davlat ta'lim standartlari talablarini amalga oshirish oliy ta'lim modernizatsiyasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayni vaqtda ushbu vazifalar samaradorligini oshirishga oid ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini samarali tashkil etishning yangi, innovatsion texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish dolzarb innovatsion vazifa hisoblanadi. Zero bu "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" Konsepsiyasida belgilab berilgan drayver fazilatlar klasterini rivojlantirishga, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning texnologik ta'minotini yaratish sohada olib borilayotgan ishlarning standartlashuviga, natijalarning

